

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2023 №4

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



В Е С Т Н И К
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела
Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии с прилагаемыми правилами, просим направлять по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе
редакционно-издательского отдела ТМА.
100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 4, 2023

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

Члены редакционноого совета

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Herald TMA №4, 2023

EDITORIAL BOARD

Editor in chief

prof. A.K. Shadmanov

Deputy Chief Editor

prof. O.R. Teshayev

Responsible secretary

prof. F.Kh. Inoyatova

EDITORIAL TEAM

academician Alyavi A.L.

prof. Bilalov E.N.

prof. Gadaev A.G.

prof. Jae Wook Choi (Korea)

academician Karimov Sh.I.

prof. Tatyana Silina (Ukraine)

academician Kurbanov R.D.

prof. Lyudmila Zueva (Russia)

prof. Metin Onerc (Turkey)

prof. Mee Yeun (Korea)

prof. Najmutdinova D.K.

prof. Salomova F.I.

prof. Sascha Treskatch (Germany)

prof. Shaykhova G.I.

EDITORIAL COUNCIL

DSc. Abdullaeva R.M.

prof. Akilov F.O. (Tashkent)

prof. Allaeva M.D. (Tashkent)

prof. Khamdamov B.Z. (Bukhara)

prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)

prof. Karimov M.Sh. (Tashkent)

prof. Mamatkulov B.M. (Tashkent)

prof. Okhunov A.A. (Tashkent)

prof. Parpieva N.N. (Tashkent)

prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)

prof. Khamraev A.A. (Tashkent)

prof. Kholmatova B.T. (Tashkent)

prof. Shagzatova B.X. (Tashkent)

Journal edited and printed in the computer of Tashkent
Medical Academy editorial department

Editorial board of Tashkent Medical Academy

Head of the department: M.N. Aslonov

Russian language editor: O.A. Kozlova

Uzbek language editor: M.G. Fayzieva

English language editor: A.X. Juraev

Corrector: Z.T. Alyusheva

Organizer: Tashkent Medical Academy

Publication registered in editorial and information
department of Tashkent city

Registered certificate 02-00128

Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30
of December 2013 in Medical Sciences department of SUPREME

ATTESTATION COMMISSION

COMPLETED MANUSCRIPTS PLEASE SEND following address:

2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA.
Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi,
4-qavat, 444-xona.

Contact number: 71- 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz

Format 60x84 1/8. Usl. printer. I. 9.75.

Listening means «Cambria».

Circulation 150.

Negotiable price

Printed in TMA editorial and publisher department
risograph

2 Farobiy street, Tashkent, 100109.

| СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT | |
|--|--|----|
| НОВЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ | NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES | |
| Zakirova M.M. ONLAYN MA'RUZA KURSINI ISHLAB CHIQISH MUAMMOLARI VA XUSUSIYATLARI | Zakirova M.M. PROBLEMS AND PECULIARITIES OF ONLINE LECTURE COURSE DESIGN | 9 |
| ОБЗОРЫ | REVIEWS | |
| Абдурахманов М.М., Умаров Б.Я., Абдурахманов З.М. ДИАГНОСТИКА ДИСФУНКЦИИ СОСУДИСТОГО ЭНДОТЕЛИЯ В УЛУЧШЕНИИ РЕЗУЛЬТАТОВ ХИРУРГИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ АТЕРОСКЛЕРОТИЧЕСКИХ ПОРАЖЕНИЙ СОННЫХ АРТЕРИЙ | Abdurakhmanov M.M., Umarov B.Ya., Abdurakhmanov Z.M. DIAGNOSIS OF DYSFUNCTION OF THE VASCULAR ENDOTHELIUM IN IMPROVING THE RESULTS OF SURGICAL TREATMENT OF ATHEROSCLEROTIC LESIONS OF THE CAROTID ARTERIES | 14 |
| Азимова Б.Ж., Хаширбаева Д.М. ТУХУМДОНЛАР ПОЛИКИСТОЗИ СИНДРОМИДА КУЗАТИЛАДИГАН ГОРМОНАЛ ЎЗГАРИШЛАР ВА УНИНГ ОҚИБАТЛАРИ | Azimova B.J., Khashirbayeva D.M. HORMONAL CHANGES IN POLYCYSTIC OVARIAN SYNDROME AND ITS COMPLICATIONS | 17 |
| Акбаров М.М., Исматуллаев З.У., Джуманиёзов Д.И. КЛИНИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ МЕТАБОЛИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ: ЭФФЕКТИВНОСТЬ ГЛИКЕМИЧЕСКОГО КОНТРОЛЯ, СНИЖЕНИЕ МАССЫ ТЕЛА И РЕМИССИЯ ДИАБЕТА | Akbarov M.M., Ismatullaev Z.U., Dzhumaniyozov D.I. CLINICAL OUTCOMES OF METABOLIC SURGERY: EFFICACY OF GLYCEMIC CONTROL, WEIGHT LOSS AND REMISSION OF DIABETES | 20 |
| Ашуров З.Ш., Ядгарова Н.Ф., Шадманова Л.Ш., Таджибаев А.А., Лян Е.М. НАРУШЕНИЯ АВТОБИОГРАФИЧЕСКОЙ ПАМЯТИ ПРИ ДЕПРЕССИИ | Ashurov Z.Sh., Yadgarova N.F., Zokirov M.M., Tolipova N.Sh., Tadjibayev A.A., Lyan Y.M. AUTOBIOGRAPHICAL MEMORY DISORDERS IN DEPRESSION | 25 |
| Бебитов С.А., Маджидова Ё.Н., Мусаев Т.С. УМУРТҚА ПОҒОНАСИ ДЕГЕНЕРАТИВ КАСАЛЛИГИГА БИОЛОГИК ЁНДОШУВ ВА ДАВОЛАШДА ТРОМБОЦИТЛАР БИЛАН БОЙИТИЛГАН ПЛАЗМАНИНГ АҲАМИЯТИ | Bebitov S.A., Majidova Y.N., Musaev T.S. BIOLOGICAL APPROACH TO THE DISK DEGENERATIVE DISEASE AND THE IMPORTANCE OF PLATELET RICH PLASMA IN TREATMENT | 30 |
| Ганиева Ш.Ш., Жарылкасынова Г.Ж. ИММУНОВОСПАЛИТЕЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ КАРДИОВАСКУЛЯРНОЙ СИНТРОПИИ | Ganieva Sh.Sh., Jarilkasinova G.J. IMMUNO-INFLAMMATORY ASPECTS OF CARDIOVASCULAR SYNTROPY | 36 |
| Каримов Ш.И., Ирнazarов А.А., Юлбарисов А.А., Алиджанов Х.К., Джуманиязова Д.А., Абдурахмонов С.Ш., Миркомиллов Э.М., Носиржонов Б.Т. РОЛЬ И МЕСТО ЦЕРЕБРАЛЬНОЙ ОКСИМЕТРИИ В ДИАГНОСТИКЕ И ХИРУРГИЧЕСКОМ ЛЕЧЕНИИ МУЛЬТИФОКАЛЬНЫХ ПОРАЖЕНИЙ БРАХИОЦЕФАЛЬНЫХ АРТЕРИЙ | Karimov Sh.I., Irnazarov A.A., Yulbarisov A.A., Alidjanov X.K., Dzhumaniyazova D.A., Abduraxmoanov S.Sh., Mirkomilov E.M., Nosirjonov B.T. THE ROLE AND PLACE OF CEREBRAL OXIMETRY IN THE DIAGNOSIS AND SURGICAL TREATMENT OF MULTIFOCAL LESIONS OF THE BRACHIOCEPHALIC ARTERIES | 39 |
| Назаров Ж.С.Э. ИММУНОЛОГИЧЕСКИЕ И МИКРОБИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОНКОГЕНЕЗА ПРИ ПАПИЛЛОМАВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ | Nazarov J.S.E. IMMUNOLOGICAL AND MICROBIOLOGICAL ASPECTS OF ONCOGENESIS IN PAPILLOMAVIRUS INFECTION | 46 |
| Ризаев Ж.А., Ахмедов А.А., Марупова М.Х. ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИКЛИНИКИ И ЕЕ СТРУКТУРНЫХ ПОДРАЗДЕЛЕНИЙ | Rizaev Zh.A., Akhmedov A.A., Marupova M.Kh. ORGANIZATION OF THE ACTIVITIES OF THE DENTAL CLINIC AND ITS STRUCTURAL DIVISIONS | 51 |
| Rustamova M.T., Xaytimbetov J.Sh, Xayrullaeva S.S. ALKOGOLSIZ YOG'LI JIGAR KASALLIGI RIVOJLANISHIDA XAVF GURUHLARINI ANIQLASH | Rustamova M.T., Khaitimbetov Zh.Sh., Khairullaeva S.S. IDENTIFICATION OF RISK GROUPS FOR THE DEVELOPMENT OF NON-ALCOHOLIC FATTY LIVER DISEASE | 58 |

| | | |
|--|--|-----|
| Хайдарова С.А., Ганиева Ш.Ш. ГЕНДЕРНЫЕ РАЗЛИЧИЯ КЛИНИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ПРИ АТИПИЧНОЙ СТЕНОКАРДИИ У БОЛЬНЫХ С РЕМОДЕЛИРОВАНИЕМ СЕРДЦА | Khaidarova S.A., Ganieva Sh.Sh. GENDER DIFFERENCES IN CLINICAL PARAMETERS IN ATYPICAL ANGINA IN PATIENTS WITH HEART REMODELING | 177 |
| Хакимов М.Ш., Ашуров Ш.Э., Дехконов Ж.К., Кушиев Ж.Х. ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД К ЛЕЧЕНИЮ ЯЗВЕННОЙ БОЛЕЗНИ ЖЕЛУДКА И ДВЕНАДЦАТИПЕРСТНОЙ КИШКИ И ЕЕ ОСЛОЖНЕНИЙ | Khakimov M.Sh., Ashurov Sh.E., Dekhkonov Zh.K., Kushiev Zh.Kh. INNOVATIVE APPROACH TO THE TREATMENT OF GASTRIC AND DUODENAL ULCER AND ITS COMPLICATIONS | 182 |
| Хамидова Ш.Ш., Наврузова Ш.И. ПОКАЗАТЕЛИ ГОРМОНАЛЬНЫХ ПАРАМЕТРОВ КРОВИ ПРИ ЛЕЙОМИОМЕ МАТКИ У ЖЕНЩИН РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА | Khamidova Sh.Sh., Navruzova Sh.I. INDICATORS OF HORMONAL BLOOD PARAMETERS IN UTERINE LEIOMYOMA IN WOMEN OF REPRODUCTIVE AGE | 189 |
| Хўжаназаров И.Э., Гофуров С.К., Сувонов У.Х. ЧАНОҚ – СОН БЎҒИМИ ЭНДОПРОТЕЗИДАН КЕЙИНГИ БЕМОЛЛАРНИ РЕАБИЛИТАЦИЯСИ НАТИЖАЛАРИНИ БАҲОЛАШ | Khudjanazarov I.E., Gofurov S.K., Suvonov U.K. EVALUATION OF THE RESULTS OF REHABILITATION OF PATIENTS AFTER HIP ENDOPROTHETIC JOINT | 192 |
| Шамсутдинова М.И., Шамсутдинов М.М., Тойчиев А.Х., Осипова С.О., Таджиева З.М., Ёрлаев Н.Ф. ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И СОВРЕМЕННАЯ ДИАГНОСТИКА У БОЛЬНЫХ ЯЗВЕННЫМ КОЛИТОМ | Shamsutdinova M.I., Shamsutdinov M.M., Toychiev A.Kh., Osipova S.O., Tajieva Z.M., Yorlaev N.F. FORECASTING AND MODERN DIAGNOSTICS IN PATIENTS WITH ULCERATIVE COLITIS | 196 |
| Eshonov O.Sh., Tillaev S.S. MIYA SHIKASTLANISHI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA LIMFOTROP TERAPIYA | Eshonov O.Sh., Tillaev S.S. LYMPHOTROPIC THERAPY IN PATIENTS WITH TRAUMATIC BRAIN INJURY | 201 |
| ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ | | |
| HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY | | |
| Маматкулов Б.М., Рахматуллаева М.К. ВЛИЯНИЕ УСЛОВИЙ И ОБРАЗА ЖИЗНИ СЕМЬИ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ ДЕТЕЙ ПЕРВОГО ГОДА ЖИЗНИ | Mamatkulov B.M., Rakhmatullaeva M.K. THE INFLUENCE OF THE CONDITIONS AND LIFESTYLE OF THE FAMILY ON THE HEALTH OF ONE-YEAR-OLD CHILDREN | 205 |
| Нуралиев Д.А. «ГРУППА РИСКА» В ГЕНЕЗИСЕ ПРЕСТУПНОГО ПОВЕДЕНИЯ И ЕГО ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ | Nuraliev D.A. "RISK GROUP" IN THE GENESIS OF CRIMINAL BEHAVIOR AND ITS PREVENTION | 208 |
| Urazaliyeva I.R., To'laganova D.S., Tursunova S.B. TIBBIY-IJTIMOIIY XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASA HAMSHIRASI ISH FAOLIYATI TAHLILI | Urazaliyeva I.R., Tulyaganova D.S., Tursunova S.B. ANALYSIS OF NURSING ACTIVITIES IN A MEDICAL AND SOCIAL SERVICE INSTITUTION | 212 |
| Усманова Ш.Ф. СУИЦИД – УГРОЗА ОБЩЕСТВУ! | Usmanova Sh.F. SUICIDE IS A THREAT TO SOCIETY! | 216 |
| Ermatova A.K., Inakov A.K. TIBBIY-IJTIMOIIY MUASSASALARDA KEKSALAR VA NOGIRONLARNI TIBBIY-IJTIMOIIYREABILITATSIYAQILISHZARURLIGINI ANIQLASH | Ermatova A.K., Inakov A.K. DETERMINING THE NEED FOR MEDICAL AND SOCIAL REHABILITATION OF THE ELDERLY AND DISABLED IN MEDICAL AND SOCIAL INSTITUTIONS | 221 |
| ПОМОЩЬ ПРАКТИЧЕСКОМУ ВРАЧУ | | |
| HELPING A PRACTITIONER | | |
| Мирзаева Д.Ф. НЕЙРОТОКСИЧЕСКИЕ ОСЛОЖНЕНИЯ МЕТОТРЕКСАТА У ДЕТЕЙ С ГЕМОБЛАСТОЗАМИ | Mirzaeva D.F. NEUROTOXIC COMPLICATIONS OF METHOTREXATE IN CHILDREN WITH HEMOBLASTOSIS | 227 |
| Рузикулов М.М., Расулов Ш.О., Ташматов Ш.Н. ВЫПОЛНЕНИЕ ЭКСТРА-ИНТРАКРАНИАЛЬНОГО МИКРОАНАСТОМОЗА У БОЛЬНЫХ С ГИГАНТСКИМИ АНЕВРИЗМАМИ ВНУТРЕННЕЙ СОННОЙ АРТЕРИИ (СЛУЧАЙ ИЗ ПРАКТИКИ) | Ruzikulov M.M., Rasulov Sh.O., Tashmatov Sh.N. PERFORMING AN EXTRA-INTRACRANIAL MICROANASTOMOSIS FOR THE TREATMENT OF PATIENTS WITH GIANT ANEURYSMS OF THE INTERNAL CAROTID ARTERY | 230 |
| Хожимуродов Э.Э., Маматкулов Б.В., Бердиев Ш.Р. ҲАРБИЙ-ТИББИЙ ЭКСПЕРТИЗАНИНГ АСОСИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ | Xojimurodov E.E., Mamatkulov B.V., Berdiev Sh.R. BASIC PRINCIPLES OF MILITARY MEDICAL EXAMINATION | 233 |

TIBBIY-IJTIMOY XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASA HAMSHIRASI ISH FAOLIYATI TAHLILI

Urazalieva I.R., To'laganova D.S., Tursunova S.B.

АНАЛИЗ СЕСТРИНСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЧРЕЖДЕНИИ МЕДИКО-СОЦИАЛЬНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ

Уразалиева И.Р., Туляганова Д.С., Турсунова С.Б.

ANALYSIS OF NURSING ACTIVITIES IN A MEDICAL AND SOCIAL SERVICE INSTITUTION

Urazalieva I.R., Tulyaganova D.S., Tursunova S.B.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Цель: изучение социальной значимости факторов, влияющих на сестринскую работу и деятельность в интернатах для детей с физическими и умственными недостатками. **Материал и методы:** исследования проведены среди 40 медсестер дома-интерната для детей-инвалидов (№2). Используются математические, статистические, социологические (анкетирование) методы верификации, методы проверки знаний медицинских сестер с помощью тестового метода. **Результаты:** 94,6% воспитанников школы-интерната, из них 268 (53,3%) мальчиков и 183 (46,6%) девочки, являются психически больными. По категориям 37,5% медсестер не классифицированы, 30% имеют II, 30% I и 0,5% высшую категорию. **Выводы:** по мнению медицинских сестер, их работу могут улучшить использование новых технологий (25,3%), прикрепление помощницы медсестры (18%), затруднились с ответом (не знаю) 56,7% опрошенных.

Ключевые слова: социальная защита, медсестра, трудовая деятельность.

Objective: To study the social significance of factors affecting nursing work and activities in boarding schools for children with physical and mental disabilities. **Material and methods:** The study was conducted among 40 nurses of a boarding school for disabled children (№2). Mathematical, statistical, sociological (questionnaire) methods of verification, methods of testing the knowledge of nurses using the test method were used. **Results:** 94.6% of the pupils of the boarding school, of which 268 (53.3%) boys and 183 (46.6%) girls, are mentally ill. By category, 37.5% of nurses are not classified, 30% have II, 30% I and 0.5% the highest category. **Conclusions:** In the opinion of nurses, their work can be improved by the use of new technologies (25.3%), the attachment of a nurse's assistant (18%), 56.7% of respondents found it difficult to answer (I don't know).

Key words: social protection, nurse, work activity.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasining (CRPD) 25-moddasida nogironlarning hech qanday kamsitishlarsiz erishilishi mumkin bo'lgan eng yuqori sog'liq standartiga ega bo'lish huquqi tasdiqlandi. Nogironligi bo'lgan bolalar ko'pincha ularning nogironligi yoki faoliyati cheklanganligi bilan bog'liq maxsus reabilitatsiya xizmatlariga muhtoj. Ular duch keladigan eng katta to'siqlar salbiy munosabatdir [3,4]. Bu omillarning barchasi tufayli nogironlik bolalar va o'smirlar salomatligi kun tartibida ustuvor ahamiyatga ega. Reabilitatsiya xizmatlarini barcha muhtoj bolalarni qamrab olish uchun kengaytirish kerak. Mamlakatlar jamiyatdagi eng kam ta'minlangan bolalarga ustuvor ahamiyat berish majburiyatini olishlari kerak. Dunyoda ruhiy kasalliklar soni ortib borayotganligi sababli, aholining ruhiy salomatligi bilan bog'liq muammolar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Butun umri davomida ruhiy kasallikdan aziyat chekadigan odam psixo-ijtimoiy yordamga muhtoj. "Psixo-ijtimoiy" atamasining o'zi psixiatrik sog'liqni saqlash xizmati tizimi va aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining turli bo'limlarining o'zaro ta'siri haqida gapiradi. Ruhiy kasalliklarga chalingan bemorlar bilan ishlashning asosiy maqsadi ularni psixiatriya shifoxonalari va nevropsixiatrik internatlar devorlari ichida jamiyatdan ajratib qo'yish emas, balki har tomonlama reabilitatsiya qilish va bemorlarning jamiyatda to'liq faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratishdir [1,2].

Tadqiqot maqsadi

Ixtisoslashgan maktab-internatlar bolalari doimiy tibbiy nazorat ostida, chunki ular ma'lum rivojlanish nuqsonlari borligi tufayli ularning umumiy sog'lig'ining tibbiy nazorati muhimdir. Bolalarning individual xaritalarini tahliliga ko'ra, ularning yashash joyi, jinsi va yoshini hisobga olgan holda, xuddi shu miqdorning kasallanish dinamikasi kuzatilishi mumkin. Bolalar kasalliklari bo'yicha materiallarni ishlab chiqishda XKK-10 ga muvofiq sinflar ro'yxati va kasalliklar nomi ishlatilgan. Bir qator ko'rsatkichlarni statistik qayta ishlashdan so'ng, tadqiqotning ushbu bosqichida biz bolalarning alohida maktablarda, kuzatuv yillarida, bolalarning jinsi va yoshiga qarab kasallanishining chuqur tavsifini bera oldik [5-7].

Material va usullar

Toshkent shahar tibbiy-ijtimoiy xizmatlar muassasasidagi 2-sonli tarbiyalanuvchilar (n-45), faoliyat yurituvchi 40 ta tibbiyot hamshiralari tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy yordam holatini o'rganish uchun ko'p bosqichli tasodifiy tanlov usullaridan (klaster, stratifikatsiya) foydalanildi.

Natijalar va muhokama

Hamshiralar yoshining o'rtacha ko'rsatkichi - o'rta yoshlilarni yani 34,1 yoshni tashkil etdi. Yoshi katta hamshiralar tez toliqishi yoki boshqa muammolarga duch kelishi tabiiy bunday xodimlarga yangi ishga kelgan hamshiralar birlashtiriladi. Shu o'rinda ish o'rgatish uchun malakali katta tajribaga ega hamshira zarur bo'ladi. Ish joyidagi stajji

hisoblab chiqilganida yillar bo'yicha ish staji o'rtacha 6,6 yilni ko'rsatdi. Malaka toifasi (kategoriya) bo'yicha 37,5% hamshira toifasiz, 30% hamshirada 2- darajali toifasi bor, 30% hamshirada 1- toifali daraja, 0,5% hamshirada oliy toifa mavjud. Malaka oshirishdan shaxsan nima olasiz? Savoliga 27,5% hamshira daromadning oshishi deb javob bergan, 72% hamshira professional maqomini takomillashtirish deb javob bergan, 0,5% hamshira hamkasblar ehtiromi deb javob bergan. 35% hamshira kunning kechki qismida, 65% hamshira kunduzi ishlashini bildirgan. Kunning birinchi yarmida ishlovchi tibbiyot hamshiralari ish vaqtiga, soat 09:00dan 15:30gacha bo'lgan vaqt oralig'i kiradi. Kunning ikkinchi yarmida ishlovchi hamshiralari ish vaqtiga soat 15:30dan 09:00gacha bo'lgan vaqt kiradi. Keyinchalik yana o'qishni davom ettirish niyatingiz borligini 45% hamshira ha bor deb javob bergan, 35% yo'q degan, 20% hamshira imkon bo'lsa deb javob bergan. Bundan ko'rinadiki bilim darajasini doimiy rivojlantirib borishni istovchilar, o'qishga extiyoji yuqori hamshiralari faoliyat olib boradi. Va o'z vaqtida malaka oshirish, o'qib o'rganganini hayotga tadbiiq eta oladi. Tabiiyki zamon talabiga mos texnika – texnologiya, ilmiy asoslangan yangiliklar innovatsiyalarni faoliyatda qo'llashi oson kechadi.

Kamchiliklarni yuzaga kelishiga ayrim sabablar ish faoliyatdagi to'siqlar katta omil bo'lib hisoblanadi. Shu sababli so'rovnomada ish faoliyatingizga to'sinlik qiluvchi to'siqlar degan savol bilan murojaat qildik. Bu savolga 15% hamshira tibbiy xodimlar yetishmasligi deb javob bergan bo'lsa, 17,5% hamshira tibbiy jixozlar yetishmasligi deb javob bergan, 30% hamshira xaddan ziyod byurokratiya deb javob bergan, 37,8% hamshira oylik maoshni kamligi deb javob bergan. Hamshiralari ishidan qoniqishi ularni oladigan maoshiga borib taqaladi. Demak 37,8% hamshira fikriga ko'ra maosh kamligi ishda to'laqonli ishlashi uchun to'siq deb hisoblagan edi. Bu savoldagi eng ko'p fikr bo'lganligi sababli alohida e'tiborga loyiq deb hisobladik. So'rovnomalarni olish jarayonida quyidagi Prezident farmoni hamshiralari maoshi oshirilishi haqida amadga tadbiiq etildi: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" gi farmoni qabul qilindi. 2021-yil 1-apreldan boshlab: "Saxovat" va "Muruvvat" internat uylari hamda urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatining: rahbar va shifokorlar oylik lavozim maoshi 1,5 barobarga; o'rta va kichik tibbiyot xodimlari oylik lavozim maoshi 2 barobarga; boshqa barcha xodimlar oylik lavozim maoshi 1,2 barobarga oshirildi.

Ish faoliyatiga ishchining qanday kayfiyatda ekani ham qilayotgan ishiga tasir etmay qolmaydi. Bu ayniqsa bemor bolalar ishlaydigan hamshira faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Bemorga har qanday holatda ham ochiq yuz va hushmuomilalik bilan munosabatda bo'lish, bemor sog'ayishiga turtki bo'lishi mumkin. Qo'pol harakat qiladigan hamshiradan xech kim muolaja olgisi yoki davolangisi kelmaydi. Ish faoliyatida ko'pincha 68,5%


hamshira yaxshi kayfiyatda bo'laman deb javob bergan, 27,5% hamshira juda yaxshi deb javob bergan, 2,5% hamshira esa ba'zan yomon kayfiyat deb javob bergan.

Tasdiqlangan dez.r-r % ni ko'rsating savoliga 95% hamshira 0.05% deb to'g'ri javobni ko'rsatgan, 0,5% hamshira esa 0.2% deb noto'g'ri javobni belgilagan. Imkoniyati cheklangan bola qisman bezovta bo'lganda 15% hamshira - sababini o'rganib, sayrga olib chiqish deb hisoblaydi, 30% hamshira - sababini o'rganib, medikament berish deb javob bergan bo'lsa, 54,5% hamshira, sababini o'rganib, shifokorga tinchlantiruvchi vosita yozdirish deb javob bergan. Hamshira ish faoliyati davomida o'ziga biriktirilgan nogiron bolalarga muolajalarini o'z vaqtida bajarishi, boshqa ko'plab vazifalarni amalga oshirishi va xujjatlarni to'g'ri yuritishi kerak. Hamshira ko'proq nogiron bolalarni parvarishi bilan shug'ullaniishi, xujjatlarga o'ralashib qolmasligi kerak. Barcha xujjatlari hamshira faoliyati haqida ahborot beruvchi vosita ekanligini bilgan holda, ular orasida bir-birini takrorlovchi xujjatlarni ham uchratdik. Shu bois hamshiralardan ish daftarlardan qaysi birini o'rinsiz deb hisoblashi haqqidagi savol so'rovnomaga kiritildi. Yuritiladigan qaysi xujjat yoki daftarini kerak emas deb hisoblaysiz savoliga 17,5% hamshira "Tutqanoqni qayd etish daftarini" deb belgilagan va buning sababi har bir bemor bolaning o'zining kasallik tarixida ham tutqanoqlar qayd etilib borishini keltirgan. 27,4% hamshira "Muolajalarni qayd etish daftarini" deb javob bergan va buning sababi muolajalar somatik kasalliklarni qayd etish daftarida ham yozilishi deb javob berilgan. 55% hamshira esa "Dez. eritma tayyorlash daftarini" deb javob bergan buning sababi esa har kunlik dez. rastvorlar solingan idishlardagi yorliqlarga yangi dez. eritma tayyorlanib, sanasi qo'yilishini keltirishgan.

Zamon rivojlangan sari yangi texnologiyalarni qo'llash ish jarayoniga samarali foydalar olib kelishini nazarda tutib quyidagi savol bilan murojaat qildik: ish joyida kompyuter bilan ta'minlanganmisiz savoliga 20% hamshira ha deb javob bergan, 80% hamshira yo'q deb javob bergan. Internat hamshirasining ish faoliyatini xronometraj bo'yicha hisobga olish uchun 40 nafar tibbiyot hamshirasida vaqt taqsimoti kartasi olib borildi. Shifokor tavsiyalarini yozib olish, xujjatlarni yurgizish uchun ketgan vaqti umumiy vaqtga ko'ra 23,3% (2 soat 25 daqiqa)ni tashkil etdi.


Majlisda qatnashish uchun ketgan vaqt umumiy ish vaqtining 8,6% (31 daqiqa) qismini egallaydi. Inyeksiyalarni bajarish, sanitariya - maorif ishlarini olib borish, bezovta bo'lgan bolalarni kuzatish, tarbiyalanuvchilarni tushlik qilishini kuzatish, kundizgi uyqisini kuzatish, uchun umumiy ish vaqtining 26,9% (3 soat 10 daqiqa) ni tashkil etdi. Navbatchilikni qabul qilib olish va navbatchilikni topshirish, ertalabki ko'rik, dez. rastvor tayyorlash, xonani tayyorlash va tayyorgarlik ishlari, kvarts lampa qo'yish bo'yicha daqiqalar hisoblab chiqilganda umumiy ish vaqtining 19,2% (45 daqiqa vaqt)ni egalladi.

Qaysi yuritiladigan hujjatni o'rinsiz deb hisoblashadi



2-diagramma

Hamshira ish faoliyati vaqt taqsimoti



Dorixonaga talabnoma yozish, dorixonadan dorilarni olish, dorilarni ichirish uchun tayyorlab qo'yish va dorilarni ichirish uchun ketgan vaqt umumiy ish vaqtining 20,8% (1 soat 15 daqiqa) ni tashkil etdi. Ishdagi tanaffuslar, boshqa joylarga o'tish, boshqa ishlarga ketgan vaqt umumiy ish vaqtining 8,9% (15 daqiqa)ni tashkil etdi. Xulosa qiladigan bo'lsak, tibbiyot hamshiralari ish faoliyatining ko'p qismini 3 soat 10 daqiqa (26,9%) ineksiyalarni bajarish, tarbiyalanuvchilarning tushlik qilishini kuzatish, kundizgi uyqusini kuzatish va sanitariya-maorif ishlar tashkil qiladi. Undan keyin shifokor tavsiyalarini yozib olish, xujjatlarni yurgizish uchun ketgan vaqti umumiy vaqtga ko'ra 2 soat 25 daqiqa (23,3%) ni egalladi.

Xulosa

Hamshira malaka toifasi bo'yicha 37,5 % hamshira toifasiz, 30% hamshirada 2- darajali toifasi bor, 30%

hamshirada 1- toifali daraja, 0,5% hamshirada oliy toifa mavjud. Qanday chora-tadbirlar hamshira faoliyatini yaxshilashi mumkin yangi texnologiyalardan foydalanish - 25.3%, yordamchi hamshira birlashtirish - 18%, bilimayman - 56.7% deb javob berilgan. Ish joyida kompyuter bilan ta'minlanganmisiz savoliga 20% hamshira ha deb javob bergan, 80% hamshira yo'q deb javob bergan.

Adabiyotlar

1. Азизова Ф.Л. // Ривожланишида нуқсонли бўлган болалар муассасаларида қулай гигиеник таълим-тарбия шароитларини яратиш муаммосининг ечими, автореферат, Тошкент, -2017.-56 б.
2. Кирьянова Е.М., Сальникова Л.И. Социальное функционирование и качество жизни психически больных - важнейший показатель эффективности психиатрической помощи // Социальная и клиническая Психиатрия. -2010. -Т. 20, -№ 3. С. 73-75.

3. Маматқулов Б. // Жамоат саломатлиги ва соғлиқни сақлашни бошқариш, дарслик, 2013. – 21б.

4. Филаткина Н.В. // Оценка деятельности медсестер психоневрологического интерната пациентами, ж."Медицинская сестра" Москва. 2018. №1.- 17с.

5. Шайхова Г.И., Азизова Ф.Л., Авезова Г.С. / Уровень и структура заболеваемости детей, воспитывающихся в специализированных школах-интернатах//Vestnik.tma.uz .2018. №1- 110с.

6. "United nations common country analysis: Uzbekistan" // un country team Uzbekistan/ data as of december 2019 and analysis completed in january 2020.

7. <https://www.who.int/ru/news-room/fact-sheets/detail/disability-and-health>].

TIBBIY-IJTIMOY XIZMAT KO'RSATUVCHI MUASSASA HAMSHIRASI ISH FAOLIYATI TAHLILI

Urazalieva I.R., To'laganova D.S., Tursunova S.B.

Maqsad: jismonan va aqlan imkoniyati cheklangan bolalar internatida hamshiralik ishi va faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni ijtimoiy axamiyatini o'rganish. **Material va usullar:** Toshkent shahar 2-sonli tibbiy-ijtimoiy xizmatlar muassasadagi tarbiyalanuvchilar (n-451), faoliyat yurituvchi 40 ta hamshira tibbiyot hamshiralari tomonidan ko'rsatilayotgan tibbiy yordam holatini o'rganish uchun ko'p bosqichli tasodifiy tanlov usullaridan (klaster, stratifikatsiya) foydalanildi. **Natijalar:** internat muassasasi bo'yicha 451 nafar boladan 94.6% ruhiy hasta bo'lib, o'g'il bolalar 53,3% (268), qiz bolalar 46,6% (183) ni tashkil etdi. Malaka toifasi bo'yicha 37,5 % hamshira toifasiz, 30% hamshirada 2- darajali toifasi bor, 30% hamshirada 1- toifali daraja, 0,5% hamshirada oliy toifa mavjud. **Xulosa:** qanday chora-tadbirlar hamshira faoliyatini yaxshilashi mumkin? yangi texnologiyalardan foydalanish - 25.3%, yordamchi hamshira biriktirish - 18%, bilmayman - 56.7% deb javob berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy ximoya, hamshira, ish faoliyati.

